

Nusxa № 1

Feld'egerlik xizmati ko'rsatishga  
biror muddati o'tkazishga

**SHARTNOMA № 27**

20<sup>dd</sup> y. «10» enko

Buxoro shahri

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati to'g'risidagi kommunikatsiyalarini Nizom asosida ish ko'ruchchi keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb ataladigan O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati Buxoro shaxar bo'linmasi nomidan xizmat boshlig'i G. M. Djuraev va keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb ataladigan *Buyurtmachi* deb ataladigan ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

**1. Shartnoma mavzusi**

- 1.1. «Buyurtmachi»ning jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha va Toshkent shahri bo'yicha qabul qilish va yetkazib berish hamda bajaruvchining tasdiqlangan jadvali bo'yicha Moskva shahri (Rossiya) orqali MDH mamlakatlari viloyat markazlarigacha yetkazib berilishini ta'minlash shartnoma mavzusi hisoblanadi.
- 1.2. «Buyurtmachi»ning jo'natmalarni dam olish va bayram kunlaridan tashqari har kuni soat 08-00 dan 18-00 gacha «Buyurtmachi» yoki «Bajaruvchi»ning binosida qabul qilinadi. Jo'natmalarni Buyurtmachining binosida qabul qilish uchun Buyurtmachi bir kun avval quyidagi (65) 223-40-12, telefon raqamni orqali berilgan buyurtmasi asosida bajariladi.
- 1.3. «Buyurtmachi»ning binosida jo'natmalar qabul qilinganligi uchun avtotransport berilganligi uchun to'lov, shuningdek har bir jo'natmadan qo'shimcha yig'im undiriladi. Ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun hisob-kitob amaldagi tarifga muvofiq bajariladi.

**2. Yetkazib berish shartlari**

- 2.1. «Bajaruvchi» O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarigacha jo'natmalarni «Buyurtmachi» tomonidan ko'rsatilgan manzil bo'yicha qo'ldan qo'lga yetkazib beradi. Agar jo'natmalarni oluvchi viloyat markazidan quyida joylashgan bo'lsa, jo'natmalar maxsus aloqa tarmog'i orqali beriladi.
- 2.2. Jo'natmalarni yetkazib berish «Bajaruvchi»ning avtotransporti orqali (istisno hollarda «Buyurtmachi»ning avtotransporti orqali), jo'natmalarni oluvchi joylashgan manziliga qarab avia va temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi.
- 2.3. Zarurat bo'lganda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» bilan kelishuv bo'yicha jo'natmalarni yo'nalish doirasidan tashqari - feld'egerlar bilan (narochno) yuborishi mumkin. Bunda «Buyurtmachi» amaldagi xarajatlarni tarifga muvofiq to'laydi.
- 2.4. «Buyurtmachi»ning jo'natmalar bo'lmaganda yoki jo'natmalar tayinlangan muddatda jo'natishga tayyor bo'lmaganda, feld'egerning nazorat varag'iga «jo'natmalar yo'q» degan belgi qo'yiladi va «Buyurtmachi»ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu holatda amaldagi tarifga binoan transport xarajatlari uchun haq to'lanadi.
- 2.5. «Bajaruvchi» jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan jo'natmalarni qabul qilmaydi va yetkazib bermaydi.

**3. Shartnoma summasi va uni to'lash tartibi**

- 3.1. Shartnomaning umumiyligi summasi 100 000 (Бираж оғзумм) so'mni tashkil etadi.
- 3.2. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ning hisob-kitob raqamiga umumiyligi summaning 30 foizi miqdorida oldindan haq to'laydi. Umumiyligi summaning qolgan qismi haqiqiy ko'rsatilgan xizmatlar uchun yil davomida to'lanadi. QQS hisoblanmaydi.
- 3.3. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq amaldagi tarif asosida taqdim etilgan hisob fakturaga asosan

joriy oyning 15-kunigacha to'lanadi. Ko'rsatiladigan xizmatlarga tasdiqlangan tarif shartnomaga ilova qilinadi.

#### **4. «Bajaruvchi»ning huquq va majburiyatlari**

- 4.1. «Bajaruvchi» jo'natmalarni qabul qilib olingen paytdan ular oluvchiga topshirilgan paytgacha jo'natmalarning saqlanishini ta'minlash yuzasidan barcha choralamni ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 4.2. «Bajaruvchi» «Buyurtmachining» jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha 48 soat mobaynida yetkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, da'm olish va bayram kunlari bundan mustasno.
- 4.3. «Bajaruvchi» zaruriyatga ko'ra «Buyurtmachi»dan «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi yoki tegishli organlar tomonidan rasmiylashtirilgan mazkur jo'natmani olib chiqishga ruxsatnoma talab qilish huquqiga egadir.
- 4.4. «Bajaruvchi» yetkazib beriladigan jo'natmalarni qo'riqlash tartibini, shuningdek yuborilayotgan jo'natmalarni turlari va cheklangan normalarini ishlab chiqishi va belgilashi hamda tashishlarning navbatma-navbatligini belgilash huquqiga egadir.

#### **5. «Buyurtmachi»ning huquq va majburiyatlari**

- 5.1. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan maxfiy jo'natmalarni O'zbekiston Respublikasining maxfiy ish yuritish talablariga muvofiq rasmiylashtirishga majburdir.
- 5.2. «Buyurtmachi» maxfiy bo'limgan paketdagi jo'natmalarni xalqaro pochta standartlariga muvofiq rasmiylashtirishi shart (konvertning chap yuqori burchagida jo'natuvchining nomi, uning manzili, shahar, respublika, konvertning o'ng quyiqismida oluvchining nomi, uning manzili, shahar, davlat, telefon), manzil ko'rsatkichidan oldin «Qayerdan» va «Qayerga» («Kimga») so'zlarini yozishi kerak.
- 5.3. «Buyurtmachi» manzilga oid ma'lumotlarni va paketlardagi boshqa yozuvlarni yozuv mashinkasida bosmaxona usulida, siyoh yoki sharikli ruchka bilan aniq va tushunarli qilib (siyoh yoki pasta qora, ko'k yoki binafsha rangda bo'lishi kerak) yozishi shart. Oluvchining manzili qisqartirilmasdan yozilishi zarur.
- 5.4. Paketning orqa tomoniga «Buyurtmachi» konvert yelimlangan chiziq bo'yicha barcha qopqoqlarda o'zining mastika muhri ottiskini qo'yishi shart.
- 5.5. Yuridik manzillar, bank rekvizitlari, telefon raqamlari o'zgargan taqdirda tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.
- 5.6. Agar jo'natmalar «Buyurtmachi»ning binosida qabul qilinsa, «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga jo'natmalarni qabul qilish uchun alohida jo'natmalar bilan ishlashga moslashtirilgan xona bilan ta'minlashi zarur.
- 5.7. Agar jo'natmalar «Buyurtmachi»ning binosida qabul qilinsa «Buyurtmachi» bir sutka oldin «Bajaruvchi»ga buyurtma berishi kerak.
- 5.8. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan jo'natmalarning og'irligini o'zi tortib ko'rish va reestrlarda shaxsan qayd etish huquqiga egadir.
- 5.9. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» tomonidan jo'natmalar topshirilganligi to'g'risida ma'lumotnomasi so'rash huquqiga egadir.

#### **6. Tomonlarning javobgarligi**

- 6.1. Jo'natmalar o'z vaqtida yetkazib berilmagan yoki yetkazilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga o'z vaqtida yetkazib berilmagan jo'natmalarning har bir kechiktirilgan kuni uchun 0,5 foiz, biroq o'z vaqtida yetkazib berilmagan yoki yetkazilmagan jo'natmalar umumiy summasining 50 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda penya to'laydi.
- 6.2. Yuborilayotgan jo'natmalarga «Bajaruvchi»ning aybi bilan zarar yetkazilgan taqdirda «Bajaruvchi» qonun hujjalarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.
- 6.3. «Bajaruvchi» tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lanmaganligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. Xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lamanligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

## 7. Taqiqlar

7.1. Quyidagilar taqiqlanadi:

mazkur Shartnomaning 5.1, 5.2, 5.3, 5.4-bandlarida ko'rsatilgan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan jo'natmalarni jo'natish.

«Bajaruvchi» orqali kontrabanda, radioaktiv, zaharovchi, portlash xavfi bo'lgan, tez alangalanadigan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi taqiqlangan boshqa moddalar va buyumlarni jo'natish.

## 8. Fors-major

«Bajaruvchi» fors-major holatlarda jo'natmalar yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki shikastlanganligi uchun javob bermaydi, aynan:

8.1. Suv toshqini, yong'in, zilzila bo'lganda va boshqa tabiiy ofatlarda;

8.2. «Bajaruvchi»ning xodimi halok bo'lganda yoki favqulodda vaziyatlarda;

8.3. Mazkur Shartnomaning 7-bo'limida ko'rsatilgan moddalar va buyumlar «Bajaruvchi» orqali jo'natilganda yoki kontrabanda va taqiqlangan tijorat jo'natmalari vakolatli organlar tomonidan hibsga olinganda yoki musodara qilinganda;

8.4. Noqulay meteorologiya sharoitlarida va havo kemasining texnik nosozligida.

8.5. Fors-major holatlarda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ni yozma ravishda xabardor qiladi.

## 9. Nizolarni hal etish

9.1. Mazkur Shartnoma bajarilishi bilan bog'liq barcha nizolar mumkin qadar tomonlarning muzokaralar olib bo'ishi yoxud davo xati jo'natish yo'li bilan hal etilishi kerak.

9.2. Tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda nizolarni hal etish O'zbekiston Respublikasining amalda qonunchiligiga muvofiq viloyat sud tartibida amalga oshiriladi.

## 10. Shartnomaning amal qilish muddati

10.1. Mazkur Shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va «6» en hap dan 2022 y. 31 gacha amal qiladi.

10.2. Mazkur Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlarning har biri tomonidan imzolangan bo'lsa, bajarilishi majburiy hisoblanadi.

10.3. Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzildi, ularning har ikkalasi bir xil yuridik kuchga ega.

Tomonlarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va telefonlari

### «BAJARUVCHI»

Buxoro sh. Navoiy ko'chasi, 5/1 uy  
Tel.: faks 65 223-40-12, 65 223-80-43  
Sh.x.v. 2020300000533934003  
ATSQB Buxoro sh MFO 00086  
XTUT 201514406, OKONX 52200

Boshlig  G.M. Djurayev

2022 y. 6 en hap



«BUYURTMACHI»  
*Buyuro Buxoro Davlat Hunarhanasi  
Hunarhanasi Buxoro fa  
Buyuro m. U. Myuminov 25  
Tel: 223-44-90 223-36-93  
1/c: 1000 21 860 06 401 701 312 09 2010  
Umarzajah Dahr Tovoni  
MFO 00086 MAFN 305/66873*



2022 y. 6 en hap  
M.O. 

*G. Yuareb*

Buxoro viloyat posmaxonasi MCHJ, tel: 223-25-38, b1487